SAMARQAND VILOYATI PAXTACHI TUMANI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 17 - aprel 161-7-102-Q/24 Paxtachi tumani hokimligi

Paxtachi tumani hokimining 2023-yil 28-sentabrdagi 222-7-102-Q/23-sonli qarorining 2-bandiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 39-moddasi, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-fevral kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-642-son Qonunining 39-moddasi 3-xatboshida:

“Tuman (shahar) hokimlarining qarorlariga muvofiq belgilanadigan ish o‘rinlari eng kam sonining jami soni tashkilotning ro‘yxatdagi xodimlari o‘rtacha sonining yetti foizidan ortiqni (shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun uch foizidan kamini) tashkil etishi mumkin emas”ligi ijro uchun qabul qilinsin.

2. Paxtachi tumani hokimining 2023-yil 28-sentabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida” 222-7-102-Q/23-sonli qarorining 2-bandi 5-xatboshi quyidagi tahrirda yangidan bayon qilinsin:

“nogironligi bo'lgan shaxslar va pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun - 46 ta;”.

3. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun 2024-yilga band qilishi lozim bo'lgan korxona, muassasa va tashkilotlar hamda ular tomonidan tashkil etilishi lozim bo'lgan ish o'rinlarining qo'shimcha ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman Kambag‘allikni

qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (B.Azizov)ga tegishli korxona, muassasa va tashkilotlarlarni 1 hafta muddatda xabardor etish vazifasi yuklansin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Sh.Arnaqulov) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **M.Xamdamov**

Paxtachi tuman hokimining
2024-yil 17-apreldagi
161-7-102-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun 2024-yilga band qilishi lozim bo'lgan korxona, muassasa va tashkilotlar hamda ular tomonidan tashkil etilishi lozim bo'lgan ish o'rinlarining qo'shimcha ro‘yxati

T/R	Korxona nomi	STIR	Jami ish o‘rinlari (shtat) soni	Band qilishi lozim bo'lgan ish o‘rinlari soni
	Jami		**2293**	**38**
1	**"O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI MAKTABGACHA TA’LIM AGENTLIGI TASARRUFIDAGI PAXTACHI PEDAGOGIKA KOLLEJI" DAVLAT MUASSASASI**	204231923	48	1
2	**"PAXTACHI ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI JAMOAT SALOMATLIGI TEXNIKUMI" DAVLAT MUASSASASI**	206697950	80	2
3	**"PAXTACHI TUMAN VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH BO‘LIMI" DAVLAT MUASSASASI**	200770288	46	2
4	**PAXTACHI TUMANI YO‘LLARDAN FOYDALANISH UNITAR KORXONASI**	200769270	76	2
5	**"PAXTACHI TUMAN O‘RMON XO‘JALIGI" DAVLAT MUASSASASI**	202402616	50	2
6	**"PAXTACHI TUMANI BARKAMOL AVLOD BOLALAR MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI**	207018804	184	2
7	**"PAXTACHI TUMAN STOMATOLOGIYA POLIKLINIKASI" DAVLAT MUASSASASI**	203300402	29	1

8	**"O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI HUZURIDAGI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI SAMARQAND VILOYATI YOSHLAR ISHLARI BOSHQARMASI PAXTACHI TUMANI YOSHLAR ISHLARI BO‘LIMI" DAVLAT MUASSASASI**	309219526	70	2
9	**"O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI PAXTACHI TUMAN IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB-INTERNATI" DAVLAT MUASSASASI**	309870139	94	4
10	**DAVLAT KADASTRLARI PALATASINING SAMARQAND VILOYAT BOSHQARMASI PAXTACHI TUMAN FILIALI**	202354454	23	1
11	**PAXTACHI TUMANI 1-SON KASB-HUNAR MAKTABI**	200770153	98	2
12	**1-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI**	206910274	79	2
13	**6-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI**	206910535	69	2
14	**21-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI**	206911028	68	2
15	**34-SON BOLALAR MUSIQA VA SAN’AT MAKTABI**	206981242	91	2
16	**25-SON BOLALAR MUSIQA VA SAN’AT MAKTABI**	206981227	98	2
17	**PAXTACHI TUMANI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI**	200770249	213	3
18	**PAXTACHI TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI**	200770192	819	2
19	**PAXTACHI TUMANI 2-SON KASB-HUNAR MAKTABI**	206968644	58	2